

O'ZBEKISTONDA NORASMIY BANDLIK VA UNING IQTISODIY OQIBATLARI

Omonov Bobur Shavkat o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Iqtisodiyot yo'nalishi 1-bosqich talabasi e-mail:
omonovb242@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20204128>

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston mehnat bozorida norasmiy bandlikning mohiyati, ko'lami va asosiy shakllari tahlil qilinadi. Norasmiy bandlikning mamlakat iqtisodiyotiga ko'rsatayotgan ko'p qirrali oqibatlar — soliq tushumlarining qisqarishi, ijtimoiy himoya tizimidagi uzilishlar, mehnat unumdorligi va investitsion jozibadorlikka ta'siri yoritilgan. Statistik ma'lumotlar hamda xalqaro tashkilotlar hisobotlari asosida norasmiy bandlik darajasi baholanib, uning asosiy determinantlari aniqlangan. Xususan, 2024-yil yanvar holatiga ko'ra O'zbekistonda jami band aholining 39 foizi, ya'ni 5,5 millionga yaqin kishi norasmiy sektorda faoliyat yuritmoqda. Tahlillar norasmiy bandlik qisqa muddatda bandlik muammosini yumshatgan bo'lsa-da, uzoq muddatda barqaror iqtisodiy o'sishga to'sqinlik qilishini ko'rsatadi. Maqola yakunida norasmiy bandlikni legallashtirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va tadbirkorlikni rag'batlantirishga qaratilgan kompleks takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: norasmiy bandlik, iqtisodiy oqibatlar, yashirin iqtisodiyot, soliq tushumlari, mehnat bozori, bandlik siyosati, kuzatilmaydigan iqtisodiyot, O'zbekiston

Nazariy qism: Jahon iqtisodiyotida norasmiy bandlik ko'plab mamlakatlar mehnat bozori uchun dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Xalqaro Mehnat Tashkilotining hisob-kitoblariga ko'ra, dunyoda band aholining qariyb 60 foizi norasmiy sektorda mehnat qiladi. Dunyo bo'ylab taxminan 2 milliard kishi norasmiy iqtisodiyotda band bo'lib, bu ko'rsatkich mintaqalar kesimida keskin farqlanadi: Afrika mamlakatlarida norasmiy bandlik ulushi 86% ni, Janubiy Osiyoda esa ayrim mamlakatlarda 80% gacha yetadi. Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasida bu ko'rsatkich 25% ni, arab mamlakatlarida esa qariyb 70% ni tashkil etadi. O'zbekiston iqtisodiyotida ham norasmiy bandlik sezilarli ulushni tashkil etib, bu holat rasmiy statistika, fiskal tizim va ijtimoiy adolat nuqtai nazaridan jiddiy xavf-xatarlarni keltirib chiqarmoqda. So'nggi yillarda amalga oshirilgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlarga qaramasdan, norasmiy bandlikning barqaror yuqori darajasi iqtisodiy siyosatning samaradorligiga jiddiy putur yetkazmoqda. Mazkur maqolaning maqsadi — O'zbekistonda norasmiy bandlikning hozirgi holati, sabablari va uning iqtisodiy oqibatlarini tizimli tahlil etish hamda vaziyatni yaxshilash bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Asosiy qism: Norasmiy bandlik — rasmiy ro'yxatdan o'tmagan, mehnat shartnomasi tuzilmagan va soliq hamda ijtimoiy ajratmalar to'lanmaydigan har qanday mehnat faoliyati. U odatda quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi: ro'yxatdan o'tmagan yakka tartibdagi tadbirkorlik, qishloq xo'jaligida oilaviy dehqon xo'jaliklaridagi yashirin bandlik, qurilish va xizmat ko'rsatish sohasidagi mavsumiy ishchilar, shuningdek, rasmiy korxonalarda to'liq yoki qisman “konvert” usulida ish haqi to'lanadigan yollanma ishchilar. Xalqaro amaliyotda esa “yashirin iqtisodiyot” atamasi o'rnida “kuzatilmaydigan iqtisodiyot” atamasi qo'llaniladi va u norasmiy hamda yashirin iqtisodiyotni o'z ichiga oladi.

Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti mutaxassislari tomonidan o'tkazilgan tahlillar O'zbekistonda norasmiy bandlikning so'nggi yillardagi o'zgarish tendensiyalarini ochib berdi. 2024-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonda jami band aholining 39 foizi, ya'ni 5,5 millionga yaqin kishi norasmiy sektorga to'g'ri.

So‘nggi yillarda bu ko‘rsatkich ma‘lum darajada pasaygan — 2020-yilda u 42,8 foizni tashkil etgan edi. Bu 3,8 foiz bandga yoki taxminan 0,2 million kishiga kamayganini bildiradi. Buning asosiy sabablaridan biri o‘zini o‘zi band qilishning davlat tomonidan qonuniylashtirilishi va rasmiy sektorga o‘tish jarayonining rag‘batlantirilayotganidir.

Statistika agentligi tomonidan 2024-yil avgust oyida o‘tkazilgan matbuot anjumanida taqdim etilgan ma‘lumotlarga ko‘ra, 2017-2023-yillar uchun iqtisodiyot tarmoqlari va hududlar kesimida norasmiy va yashirin iqtisodiyot hajmi baholangan. 2023-yilda norasmiy va yashirin iqtisodiyot hajmining tarmoqlar bo‘yicha taqsimlanishida xizmatlar sohasi 48,5% ni tashkil etgan bo‘lib, bu eng yuqori ko‘rsatkichdir.

Hudud	Norasmiy bandlik ulushi
Namangan viloyati	50%
Surxondaryo viloyati	49%
Jizzax viloyati	49%
Qashqadaryo viloyati	48,4%
Toshkent viloyati	34,9%
Buxoro viloyati	32,3%
Navoiy viloyati	21,8%
Toshkent shahri	10,9%

Abstract: This article analyzes the nature, scope and main forms of informal employment in the labor market of Uzbekistan. The multifaceted consequences of informal employment on the country's economy are highlighted - a decrease in tax revenues, disruptions in the social protection system, and the impact on labor productivity and investment attractiveness. Based on statistical data and reports of international organizations, the level of informal employment is assessed and its main determinants are identified. In particular, as of January 2024, 39 percent of the total employed population in Uzbekistan, or about 5.5 million people, work in the informal sector. The analysis shows that, although informal employment alleviates the employment problem in the short term, it hinders sustainable economic growth in the long term. The article concludes with a set of proposals aimed at legalizing informal employment, improving tax administration, and encouraging entrepreneurship.

Keywords: informal employment, economic consequences, hidden economy, tax revenues, labor market, employment policy, unobserved economy, Uzbekistan

Abstract: В данной статье анализируются характер, масштабы и основные формы неформальной занятости на рынке труда Узбекистана. Подчеркиваются многогранные последствия неформальной занятости для экономики страны – снижение налоговых поступлений, сбои в системе социальной защиты, а также влияние на производительность труда и инвестиционную привлекательность. На основе статистических данных и отчетов международных организаций оценивается уровень неформальной занятости и определяются ее основные детерминанты. В частности, по состоянию на январь 2024 года 39 процентов от общей численности занятого населения Узбекистана, или около 5,5 миллионов человек, работают в неформальном секторе. Анализ показывает, что, хотя неформальная занятость смягчает проблему занятости в краткосрочной перспективе, она препятствует устойчивому экономическому росту в долгосрочной перспективе. Статья завершается рядом предложений, направленных на легализацию

неформальной занятости, совершенствование налогового администрирования и поощрение предпринимательства.

Keywords: неформальная занятость, экономические последствия, теневая экономика, налоговые поступления, рынок труда, политика занятости, ненаблюдаемая экономика, Узбекистан

Hududlar kesimida norasmiy bandlik darajasi sezilarli farqlanadi. Norasmiy bandlikning eng yuqori darajasi Namangan (50%), Surxondaryo va Jizzax (49%), Qashqadaryo (48,4%) viloyatlariga to'g'ri keladi. Eng past ko'rsatkich esa Toshkent shahri (10,9%) va Navoiy (21,8%) viloyatida kuzatilgan. Buxoro (32,3%) va Toshkent (34,9%) viloyatlarida ham nisbatan past ko'rsatkich qayd etilgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha norasmiy sektorda band bo'lganlarning eng katta ulushi, ya'ni 34% i qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligiga to'g'ri keladi.

Soliq yuki va ma'muriy to'siqlar. Kichik biznes va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun soliq stavkalari hamda hisobot talablari ba'zan rasmiy faoliyatni olib borishni iqtisodiy jihatdan noqulay ahvolga solib qo'yadi. Konkret bir misol: qurilish sohasida kuzatilmaydigan iqtisodiyot hajmi 97 trillion so'mga (41%) baholangan bo'lib, ish haqini "konvertda to'lash" oqibatida 6,3 mingta obyekt hisobotlarida 0 yoki 1 nafar ishchi ko'rsatilgan holda qurib bitkazilgan. Mazkur sektorda yashirilgan soliqlar hajmi 1,2 trillion so'mni, talon-toroj qilingan mablag'lar esa 203 milliard so'mni tashkil etadi. Soliq islohotlari doirasida soliqlarning umumiy soni 13 tadan 9 tagacha qisqartirilgan bo'lsa-da, amalda bu choralar hali yetarli samara bermagan.

Huquqiy savodsizlik va institutsional ishonchsizlik. Aholining bir qismi rasmiy bandlik imkoniyatlari va ijtimoiy himoya mexanizmlari haqida yetarli ma'lumotga ega emas, ayrim fuqarolar esa pensiya tizimi va davlat xizmatlariga ishonchsizlik tufayli legallashishni istamaydi.

Mehnat bozoridagi talab va taklif nomutanosibliigi. Rasmiy sektorda yuqori malakali ish o'rinlarining yetishmasligi ishchi kuchining bir qismini norasmiy bandlikka "itarib yuboradi". 2023-yilda O'zbekiston iqtisodiyoti 5,5 foizga o'sgan bo'lishiga qaramay, bu o'sish natijasida yaratilgan yangi ish o'rinlarining aksariyati past unumdorlikdagi sohalarga to'g'ri kelmoqda.

Qishloq xo'jaligining tuzilishi. Dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari ko'pincha o'z iste'moli uchun mahsulot yetishtiradi, ortib qolgan mahsulot esa norasmiy kanallar orqali sotiladi; bu keng tarqalgan norasmiy bandlik shakli bo'lib, rasmiy statistikada to'liq aks etmaydi.

Birinchidan, davlat byudjeti daromadlariga jiddiy zarar yetkazadi. Norasmiy sektordagi ish haqi va daromadlardan soliq va ijtimoiy ajratmalar tushmaganligi sababli, O'zbekiston yalpi ichki mahsulotining kamida 5–7 foiziga teng bo'lgan soliq tushumlari yo'qotilmoqda. 2023-yil yakunida norasmiy iqtisodiyot hajmi 323,0 trillion so'mga baholangan. Bu davlat byudjeti uchun ulkan yo'qotish bo'lib, mazkur mablag'lar hisobiga amalga oshiriladigan ijtimoiy dasturlar, infratuzilma loyihalari va ta'lim, sog'liqni saqlash xizmatlarini moliyalashtirish imkoniyatini cheklaydi.

Ikkinchidan, norasmiy bandlik ijtimoiy himoya tizimida uzilishlarga olib keladi. Norasmiy ishchilar pensiya jamg'armalari, kasallik varaqasi, ishsizlik nafaqasi kabi kafolatlardan mahrum bo'lgani sababli, ularning qarilik yoki kasallik chog'idagi himoyasizligi ortadi. Norasmiy bandlik ulushining yuqoriligi

Pensiya tizimi barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, chunki badal to'lovchilar soni kamayib, pensiya jamg'armalari taqchilligi yuzaga keladi. Bu uzoq muddatda davlat byudjetiga qo'shimcha ijtimoiy xarajatlar sifatida qaytadi.

Uchinchidan, mehnat unumdorligi va raqobat muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Norasmiy korxonalar ko'pincha past texnologiyali, kam mahsuldor faoliyat bilan cheklanadi; ularning soliq va

tartibga solishdan bo'yin tovlashi rasmiy sektordagi korxonalar bilan tengsiz raqobat sharoitini yuzaga keltiradi. Bu holat iqtisodiyotning umumiy modernizatsiya sur'atini pasaytiradi.

To'rtinchidan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimiga salbiy ta'sir etadi. Xorijiy investorlar uchun yirik norasmiy sektor mavjudligi huquqiy himoya va shartnoma majburiyatlarining bajarilishiga oid xavf-xatarlarni oshiradi, bu esa mamlakatning investitsion jozibadorligini pasaytiradi.

Adolatli tahlil doirasida norasmiy bandlikning ayrim ijobiy funksiyalarini ham qayd etish lozim. U nochor iqtisodiy sharoitda aholining tez daromad topishiga imkon beradi, ishsizlikning o'tkir ijtimoiy oqibatlarini vaqtincha yumshatadi. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, o'zini o'zi band qilgan holda faoliyat yurituvchilar ulushining ortishi norasmiy bandlik va yashirin iqtisodiyot bilan birgallikda kambag'allik darajasining pasayishiga ham hissa qo'shgan. Biroq, bu afzalliklar vaqtinchalik xarakterga ega bo'lib, yuqorida sanab o'tilgan uzoq muddatli makroiqtisodiy xarajatlar bilan qiyoslanganda samara bermaydi.

O'zbekiston hukumati norasmiy bandlik muammosiga jiddiy e'tibor qaratmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-avgustdagi PQ-366-sonli qarori bilan norasmiy bandlik ulushini qisqartirish va mehnat resurslari balansini zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar belgilangan. Ushbu qarorga muvofiq, 2022-yil 1-noyabrdan boshlab o'zini o'zi band qilgan shaxslar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxati 10 ta yangi yo'nalish bilan kengaytirilgan. Shuningdek, 2025-yil 1-yanvardan boshlab yakka tartibdagi tadbirkorlar bilan mehnat munosabatlarida bo'lgan jismoniy shaxslar uchun ijtimoiy soliq summasi bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizigacha kamaytirilishi belgilangan. Xalqaro Mehnat Tashkiloti bilan hamkorlikda “Norasmiy bandlikdan rasmiy bandlikka o'tish” loyihasi amalga oshirilgan bo'lib, bu loyiha doirasida har yili kamida 500 ming nafar norasmiy band shaxslarning faoliyatini rasmiylashtirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar ko'rilmoqda.

Soliq tizimini takomillashtirish. Kichik biznes va o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun soddalashtirilgan va past stavkali soliq rejimlarini joriy etish, soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish orqali norasmiy aylanmalarni qisqartirish. Qurilish sohasida ish haqini “konvertida to'lash” orqali yuzaga kelgan 97 trillion so'mlik kuzatilmaydigan iqtisodiyot hajmi, bu borada tezkor choralar ko'rish zarurligini yaqqol ko'rsatmoqda.

Ijtimoiy himoya tizimini kengaytirish. Vaqtinchalik va moslashuvchan shakldagi bandlik uchun alohida ijtimoiy sug'urta paketlarini ishlab chiqish, fuqarolarning pensiya va sog'liqni saqlash xizmatlariga ishonchini oshiruvchi axborot kampaniyalarini tashkil etish.

Mehnat bozori institutlarini rivojlantirish. Bandlik xizmatlarini modernizatsiya qilish, kasb-hunar o'qitish va qayta tayyorlash dasturlarini kengaytirish orqali ishchi kuchining rasmiy sektorga o'tishini rag'batlantirish.

Norasmiy bandlikdan rasmiy bandlikka o'tishni rag'batlantiruvchi dasturlar. Ilk marta rasmiy ro'yxatdan o'tgan mikrofirmalar uchun soliq ta'tillari, imtiyozli kreditlar va davlat xaridlarida qatnashish imkoniyatlarini berish. Har yili kamida 500 ming norasmiy band shaxsni rasmiy sektorga o'tkazish bo'yicha mavjud maqsadlarni yanada kengaytirish va monitoring tizimini kuc

Huquqiy ongni oshirish. Ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyati institutlari orqali norasmiy bandlikning uzoq muddatli xavflari va rasmiy bandlikning afzalliklari to'g'risida keng tushuntirish ishlarini olib borish.

Xulosa: O'zbekistonda norasmiy bandlik iqtisodiyotning tarkibiy qismi bo'lib qolmoqda. 2024-yil boshiga kelib mamlakatda band aholining 39 foizi — 5,5 millionga yaqin kishi norasmiy sektorda

mehnat qilayotgani, norasmiy iqtisodiyot hajmining 323 trillion so‘mga baholanayotgani va faqat qurilish sohasining o‘zida 97 trillion so‘mlik kuzatilmaydigan aylanma mavjudligi ushbu muammoning ko‘lami naqadar jiddiy ekanligini tasdiqlaydi.

Norasmiy bandlik qisqa muddatli bandlik amortizatori vazifasini o‘tasa-da, uzoq muddatli istiqbolda davlat byudjeti barqarorligi, ijtimoiy himoya tizimi, mehnat unumdorligi va investitsion muhitga jiddiy tahdid solmoqda. Mazkur maqolada olib borilgan tahlillar norasmiy bandlikni butunlay yo‘q qilishdan ko‘ra, uni bosqichma-bosqich legallashtirish va rag‘batlantiruvchi mexanizmlar orqali rasmiy sektorga o‘tkazish zarurligini ko‘rsatadi. So‘nggi yillarda bu borada sezilarli yutuqlarga erishilgan — 2020-yildagi 42,8 foizlik ko‘rsatkichdan 2024-yilda 39 foizgacha pasayish kuzatilgan. Biroq, hali qilinadigan ishlar ko‘p. Soliq islohotlari, ijtimoiy kafolatlarning kuchaytirilishi va tadbirkorlik erkinligining kengaytirilishi O‘zbekistonning barqaror iqtisodiy taraqqiyotiga xizmat qiluvchi asosiy omillardir.

References:

1. Jahon banki (World Bank) Manba tavsifi: 'Yevropa va Markaziy Osiyo iqtisodiyoti: bandlik va farovonlik' hisoboti O‘zbekiston iqtisodiyotining joriy holati va prognozlarini tahlil qiladi. Havola: Jahon banki hisoboti haqida Kun.uz xabari.
2. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) Manba tavsifi: 2024-yil boshida chop etilgan sharh norasmiy bandlik va past ish haqining aylanib yurish sabablari va oqibatlarini o‘rganadi. Havola: OECD hisoboti sharhi
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi Manba tavsifi: 2024-yil 6-avgust kuni o‘tkazilgan matbuot anjumani O‘zbekistonda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholashning eng so‘nggi va rasmiy natijalariga bag‘ishlangan. Havola: Statistika agentligi matbuot anjumani
4. Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti (MHTI) Manba tavsifi: MHTI mutaxassislarining O‘zbekistondagi norasmiy bandlik tendensiyalariga bag‘ishlangan batafsil tahliliy maqolasi. Qo‘shimcha manba: Gazeta.uz – MHTI tahlili
5. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi (UNDP) Manba tavsifi: UNDPning O‘zbekistondagi norasmiy bandlik muammosiga bag‘ishlangan tahliliy material.